

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 338.486-048.78(575.121)

MAMATKULOV ZARIFBEK SHARIFJONOVICH

FARG'ONA VODIYSIDA TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.17- Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. Mirzayev A.T.

Toshkent shahri – 2025 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	15
1.1. Turizm xizmatlarini hududiy yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari.....	15
1.2. Turizm xizmatlarini hududiy rivojlantirishda turistik resurs salohiyatini baholashga uslubiy yondashuvlar	31
1.3. Turizm xizmatlarini hududiy rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar asosida turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash modellari va mexanizmlari.....	46
Birinchi bob bo'yicha xulosa	60
 2-BOB. FARG'ONA VODIYSIDA TURISTIK XIZMATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ASOSIDA HUDUDIY RESURS SALOHIYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI.....	62
2.1. Farg'ona vodiysida turizm xizmatlarining rivojlanish tendensiyalaridagi o'zgarishlar tahlili	62
2.2. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modelllashtirish	78
2.3. Hududlarda turistik xizmatlarni rivojlantirishda raqobat ustunligi hamda risklarni pasaytirish imkoniyatlari tahlili	92
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	107
 3-BOB. FARG'ONA VODIYSIDA TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA MODELASHTIRISH	110
3.1. Farg'ona vodiysida turizm xizmatlarini rivojlantirishda ko'p omilli modellardan foydalanish	110
3.2. Hududlarda turizm xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy hamda moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish	122
3.3. Farg'ona vodiysida turizm xizmatlarini strategik rivojlantirishda hududlarni turistik faoliyat turlari bo'yicha zonalashtirish istiqbollari.....	132
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	147
Xulosa va takliflar	149
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	153
Ilovalar	168

Kirish (doktorlik (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning faol integratsiyasi va iqtisodiyotning drayver tarmoqlaridan o'zlashtirilayotgan multiplikativ samaraning asosini turizm sohasi tashkil qilmoqda. Butun jahon turizm tashkiloti (BTT) ma'lumotlariga ko'ra, «Xalqaro turizm 2024-yilda pandemiyadan oldingi darajani tiklashi, ya'ni 2019-yildagi darajadan 2 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. 2023 yilda 2019 yilga nisbatan tiklanish jarayonini 100% holatida taqqoslama solishtirilganda O'rta Osiyo 122%, Afrika 96%, Yevropa 94%, Amerika 90%, dunyo bo'yicha 88% va Osiyo tinch okeani bo'yicha 65%ni tashkil etgan»¹. Turizm sohasining global darajadagi izchil taraqqiyoti mavjud resurslar va imkoniyatlardan oqilona foydalanishni talab etadi. Shu jihatdan, ushbu sohada barqarorlikka erishish uchun innovatsion yondashuvlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, tiklanish jarayonlarini kompleks va tizimli asosda qayta ko'rib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqyosida turizm sohasini barqaror rivojlantirish, ekologik muvozanatni saqlash hamda atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish bo'yicha "yashil" turizm konsepsiyasini ilgari surish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv turizmda mavjud resurslardan oqilona foydalanish, xizmatlar xilma-xilligini kengaytirish va zamonaviy yo'nalishlarni ilmiy asosda shakllantirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro integratsiyalashuv sharoitida turizm xizmatlari bozori raqobatbardoshligini oshirish, hududiy infratuzilmani innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish va turistik makonlarni ilmiy asosda modernizatsiya qilish bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish dolzarb masalaga aylangan.

"Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishda xususiy sektorning faol ishtirokini ta'minlash hamda mustahkam va barqaror institutsional infratuzilmani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga,

¹UNWTO World Tourism Barometer and Statistical Annex, January 2022. 20 (1). DOI: <https://doi.org/10.18111/wtobarometereng>.

turizm xizmatlari sifatini yaxshilash, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy turizm mahsulotlarini xalqaro bozorda samarali targ'ib qilish vazifalari ustuvor ahamiyatga ega deb qaralmoqda. Shuningdek, menejment va marketing sohasida strategik yondashuvlarni tatbiq etish, shuningdek, innovatsion boshqaruv usullarini keng joriy etish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, mamlakatda mavjud turizm resurslaridan oqilona foydalanish, ilg'or xorijiy tajribalarni moslashtirib joriy etish hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega xizmatlar va mahsulotlarni turizm sektoriga bosqichma-bosqich tadbiq etishga yo'naltirilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan “O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida yaratilayotgan keng imkoniyatlar doirasida, «Mehmonxona – transport – turoperator – savdo va servis» yo'nalishlari bo'yicha kooperatsiyalashgan korxonalarning hamkorligi asosida faoliyat yuritadigan 30 ta yirik turizm klasterlari manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda hududlarda 4 mingta yangi mehmonxona, mehmon uylari va xostellar tashkil etib, mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobar oshirish”² vazifalari belgilab berilgan. Ustuvor vazifalarning samarali bajarilishi, avvalo, turizm subyektlari tomonidan mavjud tabiiy, madaniy va ijtimoiy resurslardan maqsadli va kompleks foydalanishni talab etadi. Shu bilan birga, ushbu soha orqali hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda raqobatbardosh turizm infratuzilmasini shakllantirish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirish muhim strategik yo'nalish sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли «Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

farmonlari, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 12-yanvardagi PF-20-son “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.